

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 159.9

**YANGI O'ZBEKISTONDA MIRZO ABDULQODIR BEDIL FALSAFASINING BARKAMOL
AVLODNI SHAKLLANTIRISHDAGI MA'NAVIY-AXLOQIY AHAMIYATI**

**ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФИЛОСОФИИ МИРЗО АБДУЛКАДИРА
БЕДИЛЯ В ФОРМИРОВАНИИ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE SPIRITUAL-MORAL SIGNIFICANCE OF THE PHILOSOPHY OF MIRZA
ABDULQADIR BEDIL IN THE FORMATION OF A PERFECT GENERATION IN THE NEW
UZBEKISTAN**

Sattorova Shalola Bobir qizi 
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Bedilning barcha asarlarida bo'lgani kabi insoniy fazilatlar: insonga hurmat, ilm va ilmnинг ulug'vorligi, mehr-oqibat, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarlik, o'z-o'zini tarbiyalash, uzoqni ko'ra bilish, sadoqat, qanoat, sabr-toqat, fikr-mulohaza, diqqat-e'tibor tasvirlanganligi uning g'azallarini tahlil qilib berish orqali yoritilgan va uning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni tahlil etilgan.

Аннотация

В этой статье, как и во всех произведениях Бедиля, человеческие качества: уважение к человеку, слава науки и знаний, доброта, честность, трудолюбие, смиренье, самодисциплина, дальновидность, верность, довольство, описание терпения, размышления. , и выделяется внимание при анализе его газелей, анализируется его роль в воспитании всесторонне развитого поколения.

Abstract

In this article, as in all of Bedil's works, human qualities: respect for man, science and the glory of science, kindness, honesty, hard work, humility, self-discipline, foresight, loyalty, contentment , the description of patience, reflection, and attention is highlighted by analyzing his ghazals, and his role in the education of a well-rounded generation is analyzed.

Kalit so'zlar: Bedil, yosh avlod, insonga hurmat, ilm va ilmnинг ulug'vorligi, mehr-oqibat, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarlik, o'z-o'zini tarbiyalash, uzoqni ko'ra bilish, sadoqat, qanoat, sabr-toqat.

Ключевые слова: Бедил, молодое поколение, уважение к людям, знания и слава знаний, доброта, честность, трудолюбие, смиренье, самодисциплина, дальновидность, верность, довольство, терпение.

Key words: Bedil, the young generation, respect for people, knowledge and the glory of knowledge, kindness, honesty, hard work, humility, self-discipline, foresight, loyalty, contentment, patience.

KIRISH

Yer yuzida buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ma'naviy me'ros bugungi kunda o'zlikni anglash harakati natijasida tarixiy xotirasi tiklanayotgan, uchinchi renessans asoslari shakllanayotgan davrda yosh avlod tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Insonda pokiza imyon va e'tiqod, insonparvarlik, yurtsevarlik,adolat, shafqat va muhabbat, o'zgalar dardi bilan yashash singari ezgu tushuncha va tuyg'ular ildiz otishida ma'naviy merosimizning o'rni va ahamiyatini alohida e'tirof etish muhim. Bu borada ayniqsa, Bedil falsafiy ijodining bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil qoldirgan ilmiy meros keyingi davrda xalqimizning boy ma'naviy qadriyat, urf-odat hamda an'analaringning vujudga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Uning ijodi fanda yangi yo'lni, "Sabki Bedil" ni ochib berdi. Mazkur ilmiy-ijodiy bayon shakli keyingi davrda yangi ijodiy muhitni vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bu davrda nafaqat Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Yaqin sharq mamlakatlarida, balki dunyoning ko'plab davlatlarida Bedilxonlik shakllandi. Bedil insonning materiyada tutgan o'rni, koinot miqyosda emanatsiya jarayonini yakunlovchi

ILMIY AXBOROT

bo'g'ini sifatidagi muhim ahamiyatga ekanligiga alohida e'tibor qaratgan. Bedil g'oyalarida tinchlik omiliga alohida ahamiyat berilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hindistonda XVII-XVIII asrlarda bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy ziddiyatlar Bedilning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasiga katta ta'sir o'tkazgan. Ushbu davrda Hindistonda diniy va millatlararo masala muhim ahamiyatga ega edi. Bedil o'z davrining ziyyolilari orasida tarbiya olgan va ulg'aygan. Mazkur ziyyolilar arab tilida faoliyat olib borishgan, Qur'on va hadislar, tasavvuf va she'riyat, hind falsafasi va adabiyotining bilimdonlari va san'at vakillari bo'lismashgan. Bedil majzublar ta'sirida ko'p sayyohlik qilgan va shuning uchun ko'plab ijtimoiy muammolar va an'analar bilan yaqin tanishgan. Bularning barchasi Bedilning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik qarashlarini shakllantirishga ta'sir qilgan. Bedilning ijtimoiy-siyosiy qarashlari musulmonlar va hindlar birligi g'oyasi asosida shakllantirilgan. Buning sababi shundaki, din ijtimoiy ongning ommaviy shakli bo'lgan va Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ifoda etgan.

Mirzo Abdulqodir Bedil jamiyat, uning tuzilishi, adolat va tenglik masalalariga katta e'tibor qaratgan. I.Mo'minovning "Bedilning falsafiy qarashlari", S.Ayniyning "Mirzo Abdulqodir Bedil" monografiyalarida va X.Ayniyning "Bedil" va "Irfon" poemasi, S.Saljuqiyning "Naqdi Bedil" ("Bedil tanqidi") asarlarida hamda K.Olimov, B.Hamdamovlarning maqolalarida mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga bir necha sahifalar bag'ishlangan. Aytib o'tilgan mualliflar qatorida Bedil ham barcha ilg'or mutafakkirlar kabi yomonlikni yo'q qilish va ezgulikni tasdiqlash yo'llarini izlaganligi, diniy bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib qilganligi, diniy fanatizm, insonga qarshi bo'lgan diniy va mazhabparast marosimlarga qarshi chiqqanligidagi fikrini birday qo'llab-quvvatlashadi. Bedil asarlarida saroydagi hayot,adolatsizlik, tamagirlik, shaddodlik, o'zboshimchalik, aldov, munofiqlik hamda insonni majburan ishlatish tanqidga uchraydi.

O'z shuuringdan bo'l begona, Bedil

Jaholat sozin chal devona, Bedil,

Dud ila g'ubordir bu dunyo bari,

Ko'z yum, sabr qolsin bu xona, Bedil.

Bedil bu misrada yashagan zamonasida munofiqlik, adolatsizlik, tengsizlik, jaholatsiz holatlarning mavjudligi va unga sabr qilish kerakligini bayon etadi.

Bedil falsafasida ijtimoiy-siyosiy mavzular o'z o'rniaga ega. O'zining asarlarida u ijtimoiy hayotning salbiy tomonlarini ko'rsatishga harakat qilgan, jamiyatning tuzilmasini to'g'ri yolga qo'yish bo'yicha tavsiyalar bergen. O'zining jamiyat, ijtimoiy o'zgarishlar va davlat haqidagi qarashlarini u "Irfon"("Bilish"), "Chahor unsur" ("To'rt unsur"), "Nuqot" ("Hikmatlar") kabi asarlarida bayon qilgan. Bedilning ko'pgina ruboiylarida ijtimoiy-siyosiy va insonparvar qarashlar mavjud.

Faylasufning hayot katta farovonlik ekanligi va undan zavq olish kerakligi, inson o'z hayotining egasi bo'lishi zarurligi bo'yicha qarashlari alohida ahamiyatga ega. Bu yerda Umar Hayyomning gedonistizmi ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bedil o'rtta asrlarning jaholatparastligiga qaramay, u dunyoga umid qilib, bu dunyodagi ezgulikdan voz kechish kerakligiga qarshi chiqadi.

Mutafakkirning ba'zi she'rlarida Avestoda mayjud bo'lgan hur fikr g'oyalarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu qadimgi kitobning turli qismlarida hayot madh qilinadi va go'zallik hamda serg'ayrat deb tasavvur qilinadi.

Bedil Islom va ayniqsa tasavvufning asosiy g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan. Shuning uchun u Naqshbandiya tariqatining g'oyalari bilan tanish bo'lgan. Mazkur tariqatning g'oyalari ko'ra, ruhoniylar hukmdorlarga ta'sir qilishi mumkin. Ammo Bedil ushbu fikriga qarshi chiqadi. Bundan tashqari, yuqorida qayd etilganidek, faylasufning fikricha, inson o'z taqdirining egasi bo'lishi kerak. Naqshbandiya tariqatida inson tarkidunyochilikka berilishi kerak emasligi va mehnat bilan shug'ullanishi kerakligi haqida g'oya mavjud. Bu esa Bedilning fikriga to'g'ri keladi, chunki mutafakkir har bir mo'min musulmon o'z hayoti uchun mehnati bilan mablag' topishi kerak deb hisoblagan. Ushbu xulosaga Bedil o'z tajribasi orqali kelgan.

"Sharq Arastusi" Abu Nasr Farobi "Fozil odamlar shahri" asarida adolatli jamiyat to'g'risida bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, "Madaniy jamiyat, madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb hunardan ozod, hamma barobar bo'ldi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb hunar bilan

shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar, odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq lazzatlar paydo bo'ladi".

Bedil falsafasida ham Farobiylar qarashlaridagi kabi adolatli jamiyat kelib chiqishi, uning tuzilmasi va unda mavjud bo'lgan aloqalar bo'yicha aniq konsyepsiya mavjud emas. Lekin bu haqida uning asarlarida ba'zi bir taxminlar mavjud. Masalan, faylasufning ijodida ijtimoiy guruhlarning tashkil topishi bo'yicha g'oyalarni ko'rish mumkin.

Mutafakkirning fikricha inson ijtimoiy mavjudotdir. Unda o'ziga xos axloqiy tamoyillar mavjud va shuning hisobidan u jamiyatda o'z o'rnnini topadi. Bedilga ko'ra jamiyat quyidagi tabaqalardan iborat: hukmdor hokimiyyati, savdogarlar, olimlar va faylasuflar. Bedil Arastu va Aleksandr Makedonskiy haqidagi hikoyasi bilan u donishmand hukmdor ilm-fan va bilim hisobidan tarixda o'z ismini qoldirishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu hikoyada Bedil yagona hukmdor va markazlashgan davlat haqida aytib o'tadi. Chunki u urushlarning sababini ma'lum hukmdorlarning g'arazlari va tamagirligida ko'radi. Markazlashgan davlat bo'lmagan mamlakatda har doim urushlar bo'ladi, deb hisoblaydi Bedil.

Bedil ijodi bir tomondan islom falsafasi, ikkinchi tomondan qadimgi Hind falsafasiga asoslanadi. Ammo, uning ijodida musulmon Sharq xalqlari tafakkurining ta'siri ko'proq seziladi. L.Klimovichning yozishicha, "Bedil tili va uslubining o'ziga xos mohiyati shundaki, u an'anaviy ramziyilikka qarshi isyonni aks ettiradi. Bu "Sabki Hindiy" – hind uslubi nomi bilan ustuvor bo'lgan uslub Hindistonda va boshqa joylarda yashagan shoirlarga ko'chib o'tgan".

Mirzo Bedil insonparvarlikni targ'ib etadi, insoniy fazilatlarni ulug'laydi, shu bilan birga yomon hislatlar va nuqsonlarni tanqid etadi. U insonni milliy va diniy farqlar nuqtai nazarida emas, balki umumbashariy inson naslidan ekanligi tushunchasidan kelib chiqqan holda yuksaklikka ko'taradi va aynan shuning uchun ham insonni eng yuksak hurmat va e'zozga loyiq, deb hisoblaydi.

Bedil falsafiy dunyoqarashining markazida ulug' faylasuf, ilohiyotshunos mutasavif shayx Muhibdin Ibn Arabiy asos solgan "Vahtad ul vujud" falsafasi yotishi to'g'risida yuqorida aytib o'tgan edik. Jumladan, uning "Muhibti A'zam" nomli asari ibn Al-Arabiyning «Fusus ul-Hikam» nomli mashhur asari ta'siri asosida yaratilgan bo'lib, unda Bedil butun borliqni soqiysi Haq Taolo, azaliv va abadiy mastu maxburu esa inson bo'lmish yaxlit bir mayhona sifatida tasavvur etadi.

Bedil insonni insoniylik tamoyillariga amal qilishini, shu dunyodagi ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan haqqini himoya qilgan, shaxs erkinligi va adolatli jamiyat tuzilmasini qo'llab-quvvatlagan. Shuni aytib o'tish joizki, u inson taqdirini irfon orqali tushuntirishga o'tgan, insonning maqsadi ilohiyini bilish va bu o'z-o'zini bilish orqali amalga oshadi, deya e'tirof etadi.

Bedil fikricha, o'z-o'zini bilish, ko'p qirrali xarakterga ega, chunki unda estetik, axloqiy va jismoniy tomonlari mavjud. Mukammalikka erishish uchun inson o'z tanasining mohiyatini anglashi, o'z go'zalligini tushunishi va unda ilohiy nurni ko'rishi kerak.

Bedilning ijodi adolat va bu dunyodagi muhabbatga bo'lgan ishonchning insonparvarlik an'anasi hamda illatlarga va nafslarga tanqidiy yondashuvning misoli.

Mirzo Bedil adolat va adolatli jamiyatni ko'rish orzusi bilan yashagan. Adolat kategoriyasini Bedil siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va axloqiy tomonidan, kishilarning mavqeい nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Adolat ijtimoiy hayotning belgilovchi mezoni sifatida olib qaraladi, undan yuz o'girganlarga o'zining nafratini bildiradi.

"Muallim as-Soni" – "Ikkinchi muallif" unvoniga sazovor bo'lgan Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida adolatli, fazilatli jamiyat, davlatni demokratik boshqarish to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan. Mutafakkir "adolatli ideal jamiyatida kishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga, ularning aql zakovatiga, fazilatli axloq odobiga, hayotiy tajribasiga yuksak baho beradi. Bu jamiyatda davlat boshliqlarini fuqarolarning o'zları saylaydilar. Agar saylagan boshliqlar xalq manfaatlariga zid harakat qilsalar, ular o'z amal mansablaridan chetlashtiriladi. Ideal davlat arboblari o'z faoliyatlarida adolat teng huquqlilik, fuqarolar manfaatlarini ko'zlab ish tutadilar" deya e'tirof etadi.

Aynan bu fikrlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatiga ega. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tayotgan xalqimiz salohiyatini yanada baland cho'qilarga ko'tarish, barcha sohalarda tub islohotlar va ulkan yangilanishlarni amalga oshirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish, yurtimizda eng ilg'or demokratik va erkin

ILMIY AXBOROT

fuqarolik jamiyatini barpo etilayotganligining guvohimiz. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Bizning faoliyatimiz eng muhim konstitutsiyaviy qoidaga – ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlashga qaratilishi shart. Ijtimoiy adolat bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir".

Darhaqiqat, jahon miyosidagi murakkab jarayonlarni va Yangi O'zbekistonning bosib o'tgan taraqqiyot natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan, "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqqan yettita ustivor yo'nalishdan: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish; adolat va qonun ustivorligi; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish tamoyillariga asoslangan ustivor yo'nalishlar bo'yicha ishlar amalgalashmoqda.

Albatta yurtimiz yoshlari dono, bilimdon, odobli, ijodiy va intellektual salohiyatga ega yetuk va mukammal shaxs bo'lib yetishishlari uchun, ya'ni bilimni, kasbni egallash, uni har tomonlama boyitish uchun doimo izlanish va intilishda bo'lishlari asosiy maqsaddir.

Mirzo Bedil aytganidek, ilm-hunar egallab, ongli mehnat qilmaguncha "kishi yuziga iqbol eshigi ochilmaydi".

Insonning qiymati emas siym-u zar,

Insonning qiymati ilm ham hunar.

Demak, mustaqillik tufayli o'rganish, tahlil etish ajdodlarimiz ma'nnaviy merosini chuqur o'rganish bizning muqaddas burchimizdir. O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

XULOSA

Bedil bugungi Eron, Afg'oniston, Tojikiston va butun Markaziy Osiyo hududida o'zining ijod yo'liga ega shoir va donishmand sifatida tanilgan. O'zidan oldingi Mirzo Soib Tabriziy bilan birga fors she'riyatining "Hind uslubi" (sabki hind)ning ikki yirik namoyandasidan biri bo'lgan. Bedil she'riyatining Eronda qayta tiklanishi bevosita mashhur Eronlik munaqqid Muhammad Rizo Shofeiyga bog'lashadi. Bedilni Eronda mashhur qilgan Kadkoniy va Shams Langrudiylar bo'lib hisoblanishadi. Keyingi davrda Eron bevosita Bedil faoliyatiga bag'ishlangan ikkita yirik xalqaro anjumanga homiylik qildi.

Afg'oniston, Tojikiston, O'zbekistonda Bedil ijodini o'rganish bo'yicha "Bedil-Shinasiy", mutaxassislar esa "Bedil Shinis" nomi bilan mashhur bo'lgan jamiyatlar mavjud. Uning she'rlari butun Markaziy Osiyo, Eron, Pokiston va Afg'oniston bo'ylab o'quv dasturlariga kiritilgan.

Uning she'riyati Markaziy Osiyo hind-fors mumtoz musiqasida ham muhim o'r'in tutadi. Muhammad Husayn Saraxon, ustoz Nashanas kabi ko'plab afg'on mumtoz musiqachilar ko'plab Bedil g'azallarini kuylaganlar.

Dehlida Bedil vafoti munosabati bilan safar oyining 3-kunida shoirlar, yozuvchilar va adabiyot arboblari Bedil qabrini ziyorat qilib, she'riyat simpoziumini uyushtirib, hamma o'z kalomini o'qishi an'anaga aylangan.

Umuman olganda, Mirzo Abdulqodir Bedil – Sharq mumtoz she'riyatining buyuk siymlaridan biri, xalqimizning bu buyuk vatandoshimizga bo'lgan mehrini unga berigan "Abulma'oniy" - "Ma'nolar otasi" degan faxrli unvonga sazovor bo'lishi, purma'no fors she'riyatida o'ziga xos yangi uslubga asos solgan mutafakkirdir.

Mirzo Bedil dunyoqarashida insonparvarlik muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Mutafakkirning ilg'or g'oyasi shundaki, inson olamning markazidir. Bedil e'tirof etishicha, har bir inson uning ijtimoiy kelib chiqishidan qatiy nazar o'z taqdidi va qilmishlari uchun ma'suldir.

Bedil insonparvarlik g'oyalaringin asosiy xususiyatlari tarkibiga, bag'rikenglik, hamjihatlik, ahillik, mehr oqibatlilik, o'zaro yordam berish, rahmdillik va mehr-shavqat kabi insoniy fazilatlar kiradi. Bu esa buyuk mutafakkir g'oyalari va merosining bizning davrimizdagidan dolzarbligidan dalolat beradi.

Mirzo Bediladolat va adolatli jamiyatni ko'rish orzusi bilan yashagan.

Inson bilim egallab, kasb-korlik madaniyati va odobiga amal qilsa, zamonaviy texnika va texnologiyalarni egallab, tajriba va bilim savyasini oshirishga intilsa, aktivlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlikka otlansa, ma'nnaviy boylik va axloqiy go'zallikni o'zida mujassamlashtirgan kamolot cho'qqisini egallahiga ishonchimiz komil.

Bedil Rumi, Hofiz, Urfiy, Mehmud, Attor, Umar Hayyom kabi shoirlar rolini ijro etgan, mumtoz fors shoirlarining so'nggi ulug'i hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Муминов И.М. Философские взгляды Мирзы Бедиля. -Ташкент., 1957; Айни С. Мирзо Абдулкодири Бедил.Сталинобод -1954 (на тадж.яз); Айни Х.С. Бедил и его поэма «Ирфон». - Сталинабад 1956; Олимов К.О. Баррасихо дар тасаввуф. –Душанбе,1999 - S.97- 122; Олимов К.О. Китобномаи шархиҳоли – Душанбе, 2004, - 72 бет; .Хамдамов Б. Савмаи маърифат.- Гончи, 1999.
2. Abu Nasr Forobi Fozil odamlar shahri – Toshkent, A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993, - 190 bet.
3. Axmedova M. Falsafa. Darslik.- Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, nashriyoti, 2006 yil, 144 bet
4. Mirzo Abdulqodir Bedil Ruboiylar. Shoislom Shomuhamedov tarjimasi. – Toshkent, 1986, - 75 bet
5. Davronov Z. Falsafa. O'quv qo'llanma – Toshkent, Iqtisod – Moliya, 2006, - 144 bet
6. Muhammadiyeva O. Bedil va axloqiy qadriyatlar falsafasi, - Toshkent, «Yangi nashr», 2016, 69 bet
7. Bedil M.A. Kulliyot. T.2. Ruboiyot - Qobul, - 1 bet
8. Muhammadiyeva O. Bedil va axloqiy qadriyatlar falsafasi, - Toshkent, «Yangi nashr», 2016, 76 bet
9. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. – Toshkent, O'zbekiston, 2018, 2 том, - 35 bet
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida». <https://lex.uz/uz/docs/5841063/>